

## CHARLIZ DIKKENSNING IBRATLI HAYOT YO'LI

*Islomova Shirabonu Zafarjon qizi*

*O'zDJTU Ingliz tili 2 fakulteti 1 kurs talabasi*

Texnika-texnologiyalar rivojlanib borayotgan bugungi kunda har bir odam faqat o'z-o'ziga mahliyo bo'lib qolmoqda. Bunga, albatta, "Tik-tok", "Instagram" kabi internet platformalari ham sabab bo'lmoqda. Hayotimizda insonlar bir-biriga nisbatan juda ko'p nohaqliklar qilayotganini, bir-biriga nisbatanadolatsiz munosabatda bo'layotganini juda ko'p marta ko'zimiz bilan ko'rib, qulog'imiz bilan eshitamiz. Binobarin, o'tmishda yashab o'tgan ko'plab bobokalonlarimizadolatsizlik, nohaqlikni qoralab, juda ko'p asarlar yozgan. Nafaqat ularning asarlarida, balki ularning ichki xarakterida ham barcha yuksak fazilatlar mujassamdir.<sup>1</sup>

**Adolatli Dikkens** XIX-asr jahon adabiyotining yorqin vakili Charliz Dikkensdagi (1812-1870) adolatparvarlik hissi yoshlarimizga saboq bo'lishi turgan gap. Xo'sh, bu adolatparvarlik nimada ko'rindi? Avvalo, Ch.Dikkens (1812-1870) har bir yozuvchi yoxud qalam ustasi xalq dardi bilan yashashi kerak degan shiorga amal qilgan. Ch.Dikkens (1812-1870) yashagan zamonda Angliyada turli xil qotilliklar, zo'ravonliklar va jinoyatlar avj olib ketgan edi. Shunday bir vaziyatda bu mamlakatda sud ma'muriyatiga juda ko'p vakolatlar berilgan edi. Sud idorasidagilar esa bu vakolatlarni suis'temol qilgan holda, bo'lar-bo'lmasga odamlarni qamar va ularni og'ir jazolarga tortar edi. Siyosat ahli xalqni boshqarishning yagona yo'li sud hokimiyatiga mana shunday vakolatlar berish deb qarar edi. Albatta, Ch.Dikkens (1812-1870) bu kabi hodisalarga ko'z yumib keta olmaydi. U sud hay'atiga maktub yo'llaydi va bu ish bilan ham qanoatlanmay bu borada qalam tebratadi. Ch.Dikkens "Oliver Twistning boshidan kechirganlari" romanida bu mavzuga qo'l uradi. Adibning bu ishlari besamar ketmaydi. Ch.Dikkensning (1812-1870) bu ishlaridan so'ng mamlakatning axloqiy-tarbiyaviy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi. Odamlarni jazolash yo'li bilan mamlakatda

<sup>1</sup> "Yoshlik" jurnali.2023-yil 7-soni.41-bet.

tinchlik o'rnatib bo'lmasligini ko'pchilik tushunib yeta boshlaydi. Shundan so'ng, to'lib-toshgan Angliya qamoqxonalari jinoyatchilardan xoli bo'la boshlaydi.<sup>2</sup> Albatta, Ch.Dikkens (1812-1870) bu ishlarni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarga uchramadi deyish, noto'g'ri , ammo adib hech qachonadolat tarafdori bo'lishdan va uni yuzaga chiqarishdan to'xtamaydi.

**Pok qalbli Dikkens** Charliz Dikkens (1812-1870) pok qalb egasi edi. U hayotda qancha qiyinchiliklarga uchramasin, hattoki, bir burda nonga zor qolgan paytida ham hech qachon birovning haqiga xiyonat qilmas, jinoyat ko'chasiga kirmas, hech kimga ozor bermas va eng muhimi boshqalarga og'irligi tushmasligi haqida o'ylardi. Bu o'ylar, albatta, faqatgina qalbi pok bo'lgan samimiy insonlardagina uchraydi. Uning asarlari ham adibning xuddi shunday inson ekanligini tasdiqlaydi. Ch. Dikkensning (1812-1870) ko'plab asarlaridagi bosh qahramonlar, asosan, yosh bolalardan iborat bo'ladi, sababi bolalar ma'naviy poklikni aks ettiradi deb hisoblaydi muallif. Yozuvchi kitobxonga bolalarning ruhi jinoyatga moyil emasligini yetkazishga harakat qiladi va buni uddalaydi. Binobarin, Charliz Dikkens (1812-1870) ichki "men" ini o'z qahramonlari orqali tasvirlagan desak adashmagan bo'lamiz<sup>3</sup>. Bilamizki, Ch.Dikkens (1812-1870) tanqidiy-realizm uslubining asoschilaridan biri. U hayotda qanaqa hodisalarga, nohaqlik va yomonliklarga guvoh bo'lsa, ularni yashirmay, boricha ro'yi-rost qilib o'z asarlarida tasvirlaydi. Shunday asarlar bor, hissiyotlaringizni jumbushga keltiradi, boshqalari bu asarni yozgan yozuvchining tubanligini ochib beradi va yana shundaylari borki, qalbingizni poklaydi, ma'naviy yengilllik beradi. Yozuvchi uchun eng muhim narsa haqiqatgo'ylik va pok qalblilik bo'lsa, uning nafaqat asarlarini, balki o'zini ham tuban ko'rsatadigan jihat ikkiyuzlamachilik va yolg'on so'zlashdir. E'tiborli jihat shundaki, Ch.Dikkensda qor misoli pok qalb va sof vijdon bor. U asar yozayotganda asarga o'zidagi butun borliqni: poklikni, rostgo'ylikni bag'ishlaydi. Shu sababdan ham, uning asarlari har bir kitobxonni kechalari asar og'ushi bilan uxlolmay chiqishga, o'zidagi yomon illatlardan nafratlanishga va yaxshilik qilish kerakligini anglashga sabab bo'ladi va mening fikrimcha, bu yozuvchi uchun eng katta yutuq.

<sup>2</sup> Boynazarov F. "Jahon adabiyoti". Toshkent, "Musiqa nashriyoti" 75-bet.

<sup>3</sup> Internet materiali. Actualidadliteratura.com sayti.

**Bardoshli Dikkens** Kishi zahmat chekkan paytda yoki uning boshiga turli darajadagi sinovlar kelganda, uning sabri, bardoshi sinaladi. Agar insonda bu qiyinchiliklarni yengib o'ta oladigan sabr-bardosh topilsa, demak bu insonni hayot va uning qiyinchiliklari sindirolmaydi. Shu ma'noda Charliz Dikkensning (1812-1870) xarakterida ham bu xususiyatni yaqqol ko'ramiz. Avvalo, qalamkash uchun bu fazilat suv va havodek zarur, sababi bir asarni yoxud kitobni yozguncha ko'p muddat, shu bilan birga, sabr-qanoat ham kerak bo'ladi. Qizig'i shundaki, bu xislat Charliz Dikkensning (1812-1870) nafaqat o'zida, balki uning asarlaridagi qahramonlarida ham ustun turadi. Uning avtobiografik xarakterga ega bo'lgan "David Copperfield" romanida ham bosh qahramonning mana shunday xislati diqqatga sazovor. Asarning bosh qahramoni Devid tabiatan tirishqoq, mehnatsevar bola. U o'gay ota va bo'ysunuvchi onaning qo'lida qolib, hayoti davomida juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelsa-da, hech qachon jinoyat ko'chasini hatlab o'tmaydi. Bolaligining gullab-yashnagan davrida, tengdoshlari singari o'ynab kuladigan paytda ishlashga, mehnat qilishga majbur bo'ladi. Ammo u hech qachon 'qish istagidan voz kechmaydi. Ishlaydi, o'qiydi, kasb egallaydi, biroq u haqiqiy baxtni yozuvchilardan topadi, bu kasb unga ko'proq muvaffaqiyat olib keladi. O'ylaymanki, uning sabri, bardoshi va doimo to'g'ri yo'ldan adashmasligi har bir kitobxонни о'зига жалб қилади. Bu orqali Charliz Dikkens (1812-1870) o'sha davrdagi ziddiyatli vaziyatni tasvirlab, odamlarga ibrat bo'la oladigan qahramon yaratish bilan birga, o'zidagi go'zal insoniy fazilatlarni, qaysidir ma'noda ko'rsatib bergen.

Xulosa qilib aytganda, har bir kitobxon Charliz Dikkensning asarlarini o'qiganda yoxud uning hayot yo'liga nazar solganda yuqorida aytib o'tilgan 3 xislat adibning go'zal hayot qurishi uchun eng kerakli xususiyatlar ekanini sezadi. Men ham yozuvchining bu xislatlariga urg'u berish orqali hayotning o'nqir-cho'nqir yo'llaridan qoqlmasdan o'tish, insondan yaxshi nom qolishi uchun mana shunday inson bo'lish kerak ekanligini ta'kidlamoqchiman. Zero, bir mukammal asar yoki go'zal fazilatlari adibning hayoti biz yoshlар uchun hayot yo'limizni yoritguvchi bir chirokdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Yoshlik" jurnali. 2023-yil 7-soni (361)
2. Fayzulla Boynazarov. "Jahon adabiyoti". Toshkent. "Musiqa" nashtiyoti. 75-bet.
3. Internet materiallari: Actualidadliteratura.com.